

ORALIQ HISOBOT
2023-yil 7–22-iyun

2023-yil 26-iyun

I. QISQACHA HISOBOT

- Konstitutsiyaning uchdan ikki qismi qayta ko'rib chiqilgan konstitutsiyaviy referendumdan so'ng, 2023-yil 8-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 9-iyulga muddatidan ilgari prezidentlik saylovlarini belgiladi. Turli huquq va erkinliklarni mustahkamlashga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni keng targ'ib qilinib, yangi Konstitutsiyada ayrim huquqlarga yanada qat'iy rioya etilishini ta'minlash bo'yicha ayrim kafolatlar takomillashtirildi. Biroq Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi Saylovni kuzatish missiyasi (DIIHB SKM) suhbatlashgan bir necha kishi yig'ilishlar o'tkazish erkinligi va so'z erkinligi, shuningdek, sud hokimiyatining mustaqilligi yo'qligidan xavotirlarini bildirdilar. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat o'zgarishsiz qolmoqda, parlamentdagi siyosiy partiyalarning hech biri prezident siyosati va dasturlariga ochiq muxolifatda emas.
- Prezident yagona umummilliy saylov asosida to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Agar saylovning birinchi turi o'tkazilgandan keyin nomzodlarning birortasi haqiqiy ovozlarning 50 foizidan ko'prog'ini ololmasa, eng ko'p ovoz to'plagan ikki nomzod o'rtasida birinchi saylovdan 15 kundan keyin, lekin bir oydan kech bo'lmagan muddatda saylovning ikkinchi turi o'tkaziladi. Ro'yxatga olingan barcha saylovchilarning 33 foizi ishtirok etishi saylovning birinchi turi uchun yetarli hisoblanadi.
- Konstitutsiya va saylovga oid barcha qonunlar qayta ko'rib chiqilib, qonunchilik bazasi isloh qilinmoqda. 2023-yilgi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarda DIIHBning oldingi ayrim tavsiyalarini hisobga olingan, ammo bir nechta avvalgi tavsiyalar, jumladan, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi va so'z erkinligi, fuqarolarning saylovlarni kuzatish va siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish erkinliklarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tavsiyalar amalga oshirilishi zarur. Markaziy saylov komissiyasi (MSK) ma'lumotlariga ko'ra, hukumat 2023-yilgi saylovdan so'ng saylov qonunchiligini konstitutsiyaviy me'yorlarga muvofiqlashtirish va DIIHBning avvalgi tavsiyalarini ushbu jarayonning bir qismi sifatida ko'rib chiqishni maqsad qilgan.
- Bu saylov Markaziy saylov komissiyasi (MSK), 14 ta okrug saylov komissiyasi (OSK) va 10 784 ta uchastka saylov komissiyasi (USK) tomonidan o'tkaziladi. Hozirga qadar MSK ommaviy axborot vositalari vakillari va xalqaro kuzatuvchilar ishtirokida muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazmoqda, onlayn tarzda jonli e'firda namoyish etilib, bu borada yangilangan qo'shimcha tartib-qoidalar internetda e'lon qilib borilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi OSK va USKning 140 000 dan ortiq a'zolari uchun uch bosqichli kaskad formatdagi treningini boshladi. MSK ma'lumotlariga ko'ra, OSK barcha a'zolarining 41,4 foizi va USK a'zolarining 52,1 foizi xotin-qizlardir.
- Konstitutsiyaga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar o'rtacha og'ir va og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan hamda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo'yiladigan umumiy cheklovni olib tashladi. Endilikda ularning ovoz berish huquqi faqat sud qarori bilan cheklanishi mumkin. Saylovchilarni ro'yxatga olish passiv bo'lib, u doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga asoslanadi. Ba'zi DIIHB SKM suhbatdoshlari, jumladan, OSK a'zolari saylovchilar ro'yxatini tuzishning aniqligidan xavotir bildirishdi, chunki, odatda, ko'p sonli saylovchilar saylov kuni qo'shimcha saylovchilar ro'yxatlariga kiritiladi. DIIHB SKM doimiy kuzatuvchilari saylovchilar ro'yxatlarining aniqligiga erishish va sayyor ovoz berish zaruriyatini baholash maqsadida uyma-uy yurib tekshirishlar o'tkazilganligini ma'lum qildi.

- 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylov kuniga qadar kamida 10 yil davomida O'zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqaro prezidentlikka nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin. Saylov e'lon qilinishidan kamida to'rt oy oldin Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan partiyalargina prezidentlikka o'z nomzodini ko'rsatishi mumkin. Qonunchilik hujjatlariga binoan, ro'yxatdan o'tish uchun barcha 14 ma'muriy hududdan 200 mingta imzo to'planishi zarur. Qonun hujjatlariga ko'ra barcha 14 ta ma'muriy hududdagi saylovchilarning kamida 1% qismining imzosi to'planishi talab etiladi. DIIHB SKMning ba'zi suhbatdoshlari imzolarni to'plash va tekshirish jarayoni haqqoniy o'tkazilmayotganligidan xavotirlarini bildirdilar. MSK prezidentlikka to'rt nafar nomzodni ro'yxatga oldi. Nomzodlardan biri ayol kishidir.
- 2016-yildan boshlab xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib, hozirda amaldagi parlamentdagi jami 150 o'rindan 48 tasini xotin-qizlar tashkil etadi. Biroq siyosiy hayotda xotin-qizlarning ishtiroki nisbatan ancha kam va gender stereotiplari saqlanib qolmoqda. Hukumatdagi 27 vazirdan 2 nafari va Sudyalar oliy kengashining 12 nafar a'zosidan 2 nafarigina ayollardir. Viloyat hokimlarining hammasi erkaklardir.
- Saylovoldi kampaniyasi rasman 7-iyundan boshlandi va 7-iyulgacha davom etadi. Bugungacha, saylovoldi kampaniyasi nisbatan osoyishta o'tmoqda, bu esa, amaldagi prezidentga muxolifatning yo'qligidan dalolat beradi. Kampaniyaning borishida hozircha biror qarama-qarshilik yoki salbiy jihat kuzatilmadi. Prezidentlikka nomzodlar va siyosiy partiyalar turli afishalar, bilbordlar va elektron ekranlardan foydalangan holda targ'ibot ishlarini olib bormoqdalar. Ular saylovchilar bilan bino ichida va ochiq havoda, asosan, kichik va o'rta ko'lamdagi uchrashuvlar tashkil qilmoqdalar. Barcha nomzodlar saylovoldi kampaniyasi maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganlari qayd etildi. Saylovoldi tadbirlar davomida amaldagi prezident turli chora-tadbirlarni joriy etish niyatida ekanligini, ular tez orada amalga oshirilishi uchun Prezident farmonlari bilan qonunlashtirilishini e'lon qildi.
- Saylovoldi kampaniyasi bilan bog'liq barcha xarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi va faqat nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlanadi. Mazkur saylovlarni o'tkazish jarayonidagi targ'ibot-tashviqot ishlari uchun MSK jami 19,655 milliard so'm ajratdi. Qonunchilikda saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish to'g'risidagi oraliq va yakuniy hisobot topshirilishini talab qiladi. Hisob palatasi bu saylov bo'yicha moliyaviy auditni keyingi kalendar yilining boshida o'tkazishi ko'zda tutiladi.
- Xalqaro majburiyatlar bilan kafolatlangan so'z erkinligi va axborotdan foydalanish huquqiga qonun hamon cheklov o'rnatgan. Tuhmat, haqorat va qasddan yolg'on ma'lumot tarqatish (shu jumladan, internet OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali), shuningdek, prezidentga tuhmat qilish va uni omma oldida haqoratlashga jinoiy javobgarlik bor va besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. DIIHB SKMning ba'zi suhbatdoshlari fikricha, o'zini-o'zi senzura qilish hamon keng tarqalgan amaliyot bo'lib qolmoqda. Ba'zi jurnalistlar va blogerlar tahririyat mustaqilligiga aralashish, tahdidlar va hibsga olishlarga duch kelganliklarini ma'lum qilishdi. Davlat milliy va hududiy teleradiokompaniyalar, gazetalar saylov nomzodlariga bepul efir vaqti va bosma nashrlardagi tegishli sahifalarni taqdim etishlari shart. Nomzodlar reklama vaqti va bosma nashrlar sahifalarini ham teng shartlarda sotib olishlari mumkin. DIIHB SKM beshta telekanal va beshta onlayn ommaviy axborot vositalari bo'yicha miqdor va sifat bo'yicha o'z monitoringini boshladi.
- Qonunchilik barcha manfaatdor tomonlarga keng huquqiy maqom taqdim qiladi. 2023-yil 20-iyun holatiga ko'ra, Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari tarkibiga oid va shu kabi mazmundagi 102 ta shikoyat va murojaatlarni jamoatchilikka ma'lum qildi. MSK saylov bilan bog'liq so'rov va shikoyatlarga javob berish, onlayn rejimida huquqiy maslahatlar berish uchun bepul qo'ng'iroqlar markazni ishga tushirdi.

- Xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, mahalla qo‘mitalari kuzatuvchilari, ommaviy axborot vositalari vakillari saylovlarni kuzatib borish huquqiga ega. Qonun hujjatlarida fuqaro sifatida kuzatuvchilik qilish bo‘yicha tartib-qoidalar mavjud emas.

II. KIRISH

Markaziy saylov komissiyasining taklifiga binoan va 2023-yil 17–18-may kunlari o‘tkazilgan Ehtiyojlarni baholash missiyasi tavsiyasiga asosan YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (DIIHB) 8-iyun kuni O‘zbekistonga Saylovni kuzatish missiyasini (SKM) jo‘natdi¹. Elchi Urszula Gacek (*Urszula Gacek*) boshchiligidagi SKM Toshkentda faoliyatini yo‘lga qo‘ydi, uning tarkibida asosiy guruhdagi 11 nafar a‘zo hamda 14-iyundan buyon butun mamlakat bo‘ylab joylashtirilgan 24 nafar uzoq muddatli kuzatuvchilardan iborat. Missiya a‘zolari YXHTga a‘zo 25 ta davlatdan yig‘iladi va missiya a‘zolarining 46 foizi xotin-qizlardan iborat. Ishtirokchi davlatlardan saylov kuni saylov jarayonlarini kuzatish uchun 250 nafar qisqa muddatli kuzatuvchilarni yuborish so‘ralgan.

III. DASTLABKI SHART-SHAROITLAR VA SIYOSIY JIHAT

O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruv tizimi amal qiladi. Qonunchilik hokimiyati esa, parlamentga yuklatilgan². Prezident majburiy farmon va qarorlar chiqaradi hamda parlament yuqori palatasining ayrim a‘zolarini tayinlaydi, shuningdek, viloyatlar hokimlari, boshqa mansabdor shaxslar va sudyalarni tayinlashda asosiy rol o‘ynaydi.

2023-yil 8-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev muddatidan ilgari prezidentlik saylovlarini 2023-yil 9-iyulga belgiladi³. Bu saylovdan oldinroq, 2023-yil 30-aprelda konstitutsiyaviy referendum o‘tkazildi va uning asosida o‘zgartirilgan Konstitutsiya qabul qilindi⁴. Konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni turli huquq va erkinliklarni kengaytirishga qaratilgani bilan keng targ‘ib qilindi. Biroq DIIHB SKM suhbatlashgan bir necha kishi yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi va so‘z erkinligi, shuningdek, sud hokimiyatining mustaqilligi yo‘qligidan xavotirlarini bildirdilar.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyat o‘zgarishsiz qolmoqda. Prezident Mirziyoyev 2021-yilgi prezidentlik saylovida ko‘pchilik ovozini olgan holda g‘alaba qozongan. 2019-yilgi parlament saylovlaridan buyon ro‘yxatga olingan besh partiyaning barchasi parlamentda o‘z vakillari bilan ishtirok etadi. Bu partiyalarning hech biri prezident siyosati va dasturlariga ochiq muxolifatda emas⁵. O‘zbekiston Ekologik partiyasi (O‘EP) 2019-yilda davlat ro‘yxatidan o‘tgan, 2003-yildan beri boshqa partiyalar ro‘yxatga olinmagan. 2023-yil 16-aprelda “Haqiqat, taraqqiyot va birdamlik” demokratik partiyasi Adliya vazirligiga partiyani rasman tashkil etish niyati haqida xabar bergan⁶. Partiya ro‘yxatdan o‘tish uchun

¹ O‘zbekistondagi saylovlar bo‘yicha DIIHBning avvalgi [hisobotlariga](#) qarang.

² Oliy Majlis referendumlar o‘tkazishi, byudjetni qabul qilishi mumkin, 2019-yili Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlardan so‘ng esa, uning qonunchilik palatasi Prezident taklifiga binoan Bosh vazirni saylash uchun mas‘uldir.

³ Avvalgi Konstitutsiyaga ko‘ra, amaldagi prezidentning vakolati 2026-yilda tugashi kerak edi. Lekin prezident Mirziyoyev yangi konstitutsiya barcha hokimiyat tarmoqlarini isloh qilish va muvozanatni tiklashini, bu esa yangi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlab, muddatidan oldin prezidentlik saylovlarini o‘tkazishga chaqirdi.

⁴ Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar bitta to‘plam tarzida ovozga qo‘yildi. MSK ma’lumotlariga ko‘ra, bu referendumda saylovchilarning 84,5 foizi ishtirok etgan, saylovchilarning 90,2 foizi taklif qilingan o‘zgartirishlarni ma’qulladi. Konstitutsiya, xususan, O‘zbekistonni dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida e’lon qiladi, prezidentlik muddatini 5 yildan 7 yilgacha uzaytiradi va amaldagi prezident uchun muddat chegarasini belgilaydi. Konstitutsiya prezidentning vakolat muddatini ketma-ket ikki muddat bilan cheklaydi.

⁵ O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) – 53 ta o‘rin, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (MTDP) – 36 ta o‘rin, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) – 24 ta o‘rin, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O‘zXDP) – 22 ta o‘rin, Ekologik partiya (EP) – 15 ta o‘ringa ega bo‘ldi.

⁶ Partiya vakillarining so‘zlariga ko‘ra, talab qilinadigan 20 mingta imzodan 12 mingtasi Adliya vazirligiga topshirilgan va qo‘shimcha imzolar 2023-yil iyuliga qadar topshirilishi rejalashtirilgan.

zaruriy shart bo‘lgan imzo to‘plash paytida partiya vakillari o‘zlarining qo‘rqitilgani haqida xabar berishgan bo‘lsa, ularning yetakchisi esa qo‘lga olingan⁷. 15-iyun kuni Adliya vazirligi partiyani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun 10 777 ta imzo to‘plangani, lekin ulardan atigi 1 439 tasi haqiqiy ekanini ta’kidlab, partiyani ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etganini ma’lum qildi.

2016-yildan boshlab xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib, hozirda amaldagi Parlamentdagi jami 150 o‘rindan 48 tasini xotin-qizlar tashkil etadi (32%). 2023-yil 6-aprelda Senat jinsiy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslarni huquqiy himoya qilish doirasini kengaytiruvchi tuzatishlarni ma’qulladi. Shunga qaramay, siyosiy hayotda xotin-qizlarning ishtiroki nisbatan ancha kam va gender stereotiplari saqlanib qolmoqda⁸. Hukumatdagi 27 vazirdan 2 nafari va Sudyalar oliy kengashining 12 nafar a’zosidan 2 nafarigina ayollardir. Viloyat hokimlarining hammasi erkaklardir

IV. SAYLOV TIZIMI VA HUQUQIY MEXANIZMLAR

Prezident yagona umummilliy saylov asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Agar saylovning birinchi turi o‘tkazilgandan keyin nomzodlarning birortasi haqiqiy ovozlarning 50 foizidan ko‘prog‘ini ololmasa, eng ko‘p ovoz to‘plagan ikki nomzod o‘rtasida birinchi saylovdan 15 kundan keyin, lekin bir oydan kech bo‘lmagan muddatda saylovning ikkinchi turi o‘tkaziladi. Ro‘yxatga olingan barcha saylovchilarning 33 foizi ishtirok etishi saylovning birinchi turi uchun yetarli hisoblanadi.

O‘zbekiston demokratik saylovlarni o‘tkazishga oid yirik xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi hisoblanadi⁹. Prezidentlik saylovlari, asosan, 2023-yilgi Konstitutsiya va 2019-yilgi Saylov kodeksi bilan tartibga solinadi¹⁰. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartishlar qabul qilingandan so‘ng huquqiy tizimda islohotlar jarayoni amalga oshirilib, Konstitutsiya va Saylov kodeksi qayta ko‘rib chiqilmoqda. Asosiy qonunga 2023-yili kiritilgan o‘zgarishlarga muvofiq, agar prezident tomonidan belgilanadigan bo‘lsa, muddatidan oldingi prezidentlik saylovlarini o‘tkazish uchun ikki oylik muddat joriy etilishi mumkinligini ko‘rsatib o‘tilgan¹¹. 2023-yilgi Konstitutsiya va Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarda DIIHBning oldingi ayrim tavsiyalari hisobga olingan, xususan, o‘rtacha og‘ir va og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan hamda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo‘yiladigan umumiy cheklov olib tashlandi, shuningdek, Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar saylov komissiyalari a’zolarini a’zolikdan chiqarish uchun tegishli mezonlarini yanada

⁷ OAV ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 7-iyun kuni partiya yetakchisi Xidirnazar Allaqulov hibsga olingan va o‘sha kuniyoq qo‘yib yuborilgan. Farg‘ona Ichki ishlar boshqarmasi bergan xabarga ko‘ra, X.Allaqulov ikki militsiya xodimiga tan jarohati yetkazgan va hozirda prokuratura bu ishni tergov qilmoqda.

⁸ BMTTDning “Gender stereotiplari va patriarxal qarashlarning gender tenglikka salbiy ta’siri” tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, xotin-qizlarning parlamentdagi ishtiroki yaxshilanib, Qonunchilik palatasi va Senatdagi xodimlar orasidagi ulushi mos ravishda 32 va 25% ga yetgan. Biroq xotin-qizlar ishtiroki ijroiya hokimiyati organlarida (3,4%), shuningdek, rahbarlik lavozimlarida (27%) va tadbirkorlikda (25%) kam darajadagicha qolmoqda.

⁹ Jumladan, [1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt \(FSHXP\)](#), [1979-yildagi Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya \(XKBBK\)](#), [1965-yildagi Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya](#), [2003-yildagi Korrupsiyaga qarshi konvensiya](#), [2006-yildagi Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya](#) va [Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga a’zo davlatlarda demokratik saylovlar, saylov huquqlari va erkinliklari standartlari to‘g‘risidagi konvensiya \(MDH Konvensiyasi\)](#).

¹⁰ U 1996-yildagi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun, 2004-yildagi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun, 1994-yildagi Jinoyat kodeksi va 1994-yildagi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, shuningdek, Prezident farmonlari, nizomlari va MSK tomonidan chiqarilgan majburiy qarorlar bilan to‘ldiriladi.

¹¹ Muddatidan oldin parlament saylovlarini o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa o‘zgarishlar, MSKning takroriy saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni tashkil etish muddatlarini belgilash bo‘yicha vakolatlari va boshqalar.

kengaytirdi¹². MSK ma'lumotlariga ko'ra, Saylov kodeksiga 2023-yilga kiritilgan o'zgartirishlar Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarni aks ettiradi va shu sababli ular qabul qilinishidan oldin tegishli manfaatdor tomonlar bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar talab etmaydi.

DIIHBning bir qancha uzoq yillik tavsiyalari, jumladan, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi va so'z erkinligi, fuqarolarning saylovlarni kuzatish va siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish erkinliklarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tavsiyalar hamon bajarilganicha yo'q. Bundan tashqari, qonunchilikda ayrim mujmalliklar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda¹³. MSK axborotiga ko'ra, ushbu saylovlardan so'ng saylov qonunchiligini qayta ko'rib chiqish bo'yicha katta huquqiy islohot o'tkazish rejalashtirilmoqda va bu jarayonda ular DIIHBning avvalgi tavsiyalarini inobatga olishni rejalashtirmoqda.

2023-yilgi Konstitutsiyada insonning asosiy huquq va erkinliklarining asosiy kafolatlari, jumladan, fikr va so'z erkinligi, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi va ovoz berish huquqi kiradi¹⁴. Konstitutsiyada inson huquqlarining bevosita qo'llanilishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ular haligacha qayta ko'rib chiqilmagan qonunosti hujjatlari bilan cheklanib qolmoqda¹⁵. Inson huquqlari, jumladan, qonun hujjatlarida nazarda tutilishi shart bo'lgan cheklash asoslari yanada hurmat qilinishini ta'minlash bo'yicha muayyan kafolatlar kuchaytirildi. DIIHBning saylovoldi kampaniyasi maqsadida ommaviy yig'ilishlarning ayrim jihatlari tartibga solish bo'yicha avvalgi tavsiyasi 2021-yilda Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar orqali qisman hisobga olingan bo'lib, agar avval targ'ibot ishlari o'tkazish uchun ruxsat olish tartibi joriy qilingan bo'lsa, buning uchun hozirda shunchaki oddiy bildirishnoma talab qilinadi xolos. Biroq yig'ilishlar erkinligi hech qanday aniq qonuniy hujjat bilan tartibga solinmagan va Konstitutsiyaning yig'ilishlar erkinligi qoidalari o'zgartirilmagan.

V. SAYLOVLARNI BOSHQARISH

Prezident saylovi Markaziy saylov komissiyasi, Markaziy saylov komissiyasi (MSK), 14 ta okrug saylov komissiyasi (OSK) va 10 784 ta uchastka saylov komissiyasi (USK), jumladan xorijda tashkil etilgan 56 ta USK tomonidan o'tkaziladi¹⁶.

MSK doimiy faoliyat yurituvchi organ hisoblanadi; uning a'zolari hududiy vakillik organlarining takliflari asosida Oliy Majlis tomonidan noaniq muddatga tayinlanadi¹⁷. Hozirgi MSK tarkibida 21 nafar a'zo faoliyat yuritib, ularning yetti nafari xotin-qizlardir. Markaziy saylov komissiyasi saylovlarni tashkil etish va o'tkazish vakolatiga ega bo'lishi barobarida keng qonuniy vakolatlar bilan ta'minlangan¹⁸. Muddatidan oldingi saylovlar borasida MSK saylov muddatlarini o'z ixtiyoriga ko'ra belgilashi mumkin bo'ladi¹⁹.

¹² 2021-yilda yana bir qancha o'zgarishlar kiritildi va qisman DIIHBning avvalgi tavsiyalariga, jumladan, saylovoldi kampaniyasini o'tkazish tartib-taomillarini yumshatish, davlat resurslaridan noto'g'ri foydalanishni taqiqlash, saylovoldi kampaniyasi moliyalashtirish va saylovdagi nizolarini hal qilish bilan bog'liq ayrim o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi.

¹³ Qonunda, jumladan, deputatlikka nomzodlar ko'rsatish va ro'yxatga olishning ayrim tartiblari, saylovoldi kampaniyalarini o'tkazish shartlari, deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar nomzodlarini qaytib olish va siyosiy partiyalardagi muxolifatlar ishtiroki tartiblari batafsil keltirilmagan.

¹⁴ Konstitutsiyada uning me'yorlarining bevosita qo'llanilishi, O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalarning milliy qonunlardan ustuvorligi belgilab qo'yilgan.

¹⁵ [BMT Inson huquqlari qo'mitasining 2020-yilgi O'zbekistonning beshinchi davriy hisoboti bo'yicha yakuniy kuzatishlari bo'yicha hisobotga](#) qarang, unda "qonuniy va amalda tinch yig'ilishlar o'tkazish huquqining asossiz cheklanishi" yuzasidan xavotirlar bildirilgan.

¹⁶ Jazoni ijro etish muassasalari, harbiy qismlar, kasalxonalar va boshqa sog'liqni saqlash muassasalarida maxsus saylov uchastkalari tashkil etilgan.

¹⁷ Konstitutsiyaga kiritilgan so'nggi tuzatishlarga ko'ra, MSK raisi MSK tomonidan o'z a'zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi va bu lavozimni ketma-ket ikki muddatdan ko'p bo'lmagan muddatga egallashi mumkin.

¹⁸ Bu vakolatlariga nomzodlarni ro'yxatga olish, saylovoldi kampaniyalari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash (jumladan, ommaviy axborot vositalarida), saylov byulletenlarini tarqatish, saylov natijalarini tan olish va ularni haqiqiy emas, deb topish kabi vakolatlar kiradi.

¹⁹ MSK muddatdan oldingi saylov e'lon qilinganidan ikki kun o'tib batafsil taqvim rejasini e'lon qildi.

Markaziy saylov komissiyasida OAV va xalqaro kuzatuvchilar ishtirokida muntazam ravishda yig‘ilishlar o‘tkazilib, ular onlayn translyatsiya qilinadi. MSK majlislarida birinchi marta, shu jumladan quyi saylov organlaridan kelib tushgan shikoyat va murojaatlar yuzasidan, hisobot berish va ularni muhokama qilish amaliyoti joriy qilindi²⁰. Hozirga qadar MSK bir qancha me‘yoriy hujjatlarni qabul qildi va yangiladi²¹.

19-may kuni MSK viloyatlar Kengashlari takliflari asosida OSKni tuzdi. Bunday tartiblar uchun so‘nggi muddat hisoblangan 29-may kuni mahalliy Kengashlar takliflari asosida, ular esa, o‘z navbatida, mahalla qo‘mitalari, jamoatchilik birlashmalari va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan nomzodlar kiritilgan holda, uchastka saylov komissiyalari tuzildi²². Saylov kodeksiga va MSK tartib-qoidalari 2023-yilda kiritilgan o‘zgartirishlar komissiya a‘zolari nomzodini ko‘rsatishning ayrim mezonlarini o‘z ichiga oladi²³. MSK ma‘lumot berishicha, yangi tartiblarga ko‘ra, hozirda senator bo‘lgan bir necha OSK a‘zosi endilikda OSK a‘ziligiga qabul qilinmaydi. Bugunga qadar MSKga fuqarolardan saylov komissiyalari tarkibi, jumladan, uchastka saylov komissiyasi raisi yoki a‘zolarining tayinlanishidan norozilik yuzasidan bir qancha shikoyat va murojaatlar kelib tushdi. Bu borada, a‘zolikka qabul qilish jarayoni haqida ommaviy axborot unchalik ko‘p emas. MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, OSK a‘zolarining qariyb 86 foizi avval ham OSK a‘zolari bo‘lishgan.

Markaziy saylov komissiyasi OSK va USKning 140 000 dan ortiq a‘zolari uchun uch bosqichli kaskad formatdagi treningini tashkil qildi. Bu treninglar axborotga boy va interaktiv tarzda tashkil etilganligi DIIHB SKMning uzoq muddatli kuzatuvchilari tomonidan ham e‘tirof etildi. Hududlarda tahlil qilingan materiallarning aksariyati saylovda ishtirok etishni targ‘ib qilishga bag‘ishlandi. Umuman olganda, xotin-qizlar saylov organlarida munosib ishtirok etmoqda. MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, OSK barcha a‘zolarining 41,4 foizi va USK a‘zolarining 52,1 foizi xotin-qizlardir. Qonunchilikda ovoz berishning bir qancha muqobil usullari, jumladan, muddatidan oldin ovoz berish ham ko‘zda tutilgan²⁴.

VI. SAYLOVCHILARNI RO‘YXATGA OLISH

18 va undan katta yoshdagi fuqarolar ovoz berish huquqiga ega. Konstitutsiyaga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlarga ko‘ra, o‘rtacha og‘ir va og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan hamda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo‘yiladigan umumiy cheklovni olib tashladi. Endilikda ularning ovoz berish huquqi faqat sud qarori bilan cheklanishi mumkin. Konstitutsiya qabul qilingandan keyin fuqarolarning ushbu guruhlari avtomatik ravishda ovoz berish huquqiga ega bo‘ldilar²⁵.

Saylovchilarni ro‘yxatga olish passiv bo‘lib, u doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga asoslanadi²⁶. Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati (SYER) bir nechta davlat idoralari va vazirliklarning

²⁰ OSK Markaziy saylov komissiyalari yig‘ilishlarida “Zoom” ilovasi yordamida ishtirok etadi.

²¹ Jumladan, OSK va USKga a‘zo bo‘lish mezonlari, Toshkent shahridagi ellikta saylov uchastkasida biometrik qurilmalardan foydalangan holda saylovchilarni identifikatsiya qilish, USK ishini tashkil etish, ovoz berish kunidagi tartiblar, kuzatuvchilar huquqlari, saylov kuni videokameralardan foydalanish masalalari bo‘yicha.

²² OSK va USK saylovni o‘tkazish bo‘yicha vaqtinchalik organ hisoblanadi.

²³ Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari, shuningdek Senat a‘zolari, hokim o‘rinbosarlari, siyosiy partiyalar vakillari, deputatlikka nomzodlar, shuningdek o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir jinoyatlar uchun sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar endi OSK va USK a‘zosi bo‘lish huquqiga ega emas. Ilgari qo‘llaniladigan talablar bir tashkilotning ma‘lum bir USK a‘zolarining yarmidan ko‘pini nomzod qilib ko‘rsata olmasligini o‘z ichiga oladi. Siyosiy partiyalar hech qanday komissiya a‘zolarini ko‘rsatishga haqli emas.

²⁴ Qonunga ko‘ra, muddatidan oldin ovoz berish 28-iyundan 5-iyulga qadar o‘tkaziladi.

²⁵ MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, 10702 nafar huquqdan mahrum qilingan mahkumlar va 6608 nafar ruhiy-psixologik nuqsoni bo‘lgan shaxslar bor.

²⁶ Chet elda ovoz berish uchun ro‘yxatdan o‘tish ancha faol kechmoqda. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirda ikki millionga yaqin fuqaro xorijda istiqomat qiladi.

ma'lumotlar bazalarini umumlashtirgan holda avtomatik tarzda tashkil qilingan²⁷. SYERda ovoz beruvchilarning dastlabki ro'yxatlari har bir ovoz berish uchastkasi bo'yicha tuzib chiqildi²⁸. USK ovoz beruvchilar ro'yxatini tekshirishga mas'ul bo'lib, ular mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahallalardan ma'lumotlarni yig'ish bilan shug'ullanishadi hamda ovoz beruvchilarning haqiqiy manzillarini uyma-uy yurib, tekshiradilar. MSK ma'lumotlariga ko'ra, 21-iyun kuni saylovchilarning umumiy soni, qariyb 22 million kishini tashkil qilgan.

Fuqarolarga saylovchilarning ma'lumotlarini onlayn, shuningdek, saylov uchastkalariga borib shaxsan tekshirish imkoniyati yaratildi. Saylovchilar ro'yxatlari saylov kuniga besh kun qolganida tuzilsa-da, saylov qonunchiligida saylov kuni qo'shimcha ro'yxatlarga saylovchilarni kiritish imkoniyati ko'zda tutilgan. DIIHB SKM suhbatlashgan ba'zi kishilar, jumladan, OSK a'zolari saylovchilar ro'yxati to'g'ri tuzilishi borasidagi o'z xavotirlarini bildirdilar, chunki odatda saylov kuni qo'shimcha ro'yxatlarga ko'p sonli saylovchilar kiritiladi. DIIHB SKM doimiy kuzatuvchilari saylovchilar ro'yxatlarining aniqligini oshirish va sayyor ovoz berish zaruriyatini baholash maqsadida uyma-uy yurib tekshirishlar o'tkazilganligini ma'lum qildilar.

VII. NOMZODLARNI RO'YXATGA OLISH

35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylov kuniga qadar kamida 10 yil davomida O'zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqaro prezidentlikka nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin²⁹. Saylanish huquqi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar, qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki diniy ayblov bilan qamalgan shaxslarga tatbiq etilmaydi. Saylov e'lon qilinishidan kamida to'rt oy oldin Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan partiyalarga prezidentlikka o'z nomzodini ko'rsatishi mumkin. DIIHB avvalroq o'ta murakkab va qo'llanilishi chalkashroq deb baholangan, siyosiy partiyalarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlari hamon o'zgarishsiz qolmoqda³⁰. Bu qonunchilik alohida nomzodlarning saylovda qatnashishiga ruxsat bermaydi.

15-may kuni MSK ro'yxatga olingan barcha beshta siyosiy partiyaning nomzod ko'rsatish huquqini tasdiqladi. Qonun hujjatlariga ko'ra barcha 14 ta ma'muriy hududdagi saylovchilarning kamida 1% qismining imzosi to'planishi talab etiladi. Qolaversa, prezidentlikka nomzod shaxs 15-maydan 3-iyungacha bo'lgan muddatda bu imzolarni to'plashi zarur³¹. To'rtta siyosiy partiya MSKga o'z nomzodini taqdim etdi. Amaldagi prezident nomzodi dastlab ikki siyosiy partiya tomonidan ko'rsatilgan va keyinchalik O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi (O'zLiDeP) nomzodi sifatida ro'yxatga olingan³². MSK qaroriga binoan, har bir nomzod bo'yicha to'plangan imzolarning kamida 15 foizi namuna olish usullarini ko'rsatmasdan turib tekshirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan³³. DIIHB SKMning ba'zi suhbatdoshlari imzolarni to'plash va tekshirish jarayoni haqqoniy o'tkazilganidan xavotirlarini bildirdilar.

²⁷ Bir qator davlat organlari, jumladan Adliya vazirligining Davlat personalizatsiya markazi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi.

²⁸ 1-iyun kuni USK o'z saylov uchastkalarida saylovchilar ro'yxati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jazoni ijro etish muassasalari, harbiy qismlar, gospitallar va boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga saylash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning ro'yxatlari ushbu muassasalarning rahbarlari tomonidan tuziladi.

²⁹ Til bo'yicha talablarni qanday baholash bo'yicha hech qanday tartib-qoida yo'q. MSK bu amalda qo'llanilmagani haqida DIIHB SKMga ma'lum qildi, faqat nomzodlarning tilni bilishiga shubha tug'ilgan hollar bundan mustasno.

³⁰ Xususan, partiyani ro'yxatdan o'tkazish jarayoni uchun 20 ming a'zoning imzosi olinishi talab etiladi.

³¹ Mazkur saylov uchun kamida 221 183 ta imzo to'plash talab etilar edi. Saylov kodeksiga ko'ra, mamlakatning 14 ta viloyatdan birida 8 foizdan ko'p bo'lmagan ovoz yig'ilishi mumkin. Saylovchilar bir nechta nomzod uchun imzo chekishi mumkin.

³² O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (MTDP) dastlab amaldagi prezidentlikka nomzod ko'rsatib, imzo to'plagan.

³³ MSK har biri 18 kishidan iborat ikkita ekspert guruhi tuzdi va hujjatlar va tasdiqlovchi imzolarni tekshirish uchun to'rt kun vaqt ajratdi, bu kamida 120 000 imzoni (to'rt nomzodning har biri uchun kamida 30 000 imzo) tashkil etdi.

Prezidentlikka to‘rt nafar nomzodning barchasi 6-iyun kuni ro‘yxatga olindi³⁴. Nomzodlardan biri ayol kishidir.

VIII. SAYLOV KAMPANIYALARI MUHITI

Saylovoldi kampaniyasi rasman 7-iyundan boshlandi va 7-iyulgacha davom etadi. Saylovdan bir kun oldin va saylov kuni saylovoldi kampaniyasini olib borish va jamoatchilik fikrini ommaga tarqatish, shu jumladan internet tarmog‘ida e‘lon qilish qonun bilan taqiqlanadi. Qonunchilik hujjatlari ko‘ra, barcha nomzodlar uchun saylovoldi kampaniyasini olib borishda, jumladan, uchrashuvlar tashkil etish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, targ‘ibot-tashviqot materiallarini chop etish va tarqatishda teng imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilgan tartib-qoidalarni o‘z ichiga oladi³⁵. Siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlar saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish joyi va vaqti to‘g‘risida kamida uch kun oldin okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalarini xabardor qilishi hamda tegishli tuman hokimligini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Bugungacha, saylovoldi kampaniyasi nisbatan osoyishta o‘tmoqda, bu esa, amaldagi prezidentga muxolifatning yo‘qligidan dalolat beradi. Kampaniyaning borishida hozircha biror qarama-qarshilik yoki salbiy jihat kuzatilmadi. Prezidentlikka nomzodlar va siyosiy partiyalar turli afishalar, bilbordlar va elektron ekranlardan foydalangan holda targ‘ibot ishlarini olib bormoqdalar. Ular saylovchilar bilan bino ichida va ochiq havoda, asosan, kichik va o‘rta ko‘lamdagi uchrashuvlar tashkil qilmoqdalar³⁶. DIIHB SKM tomonidan kuzatilgan saylovoldi kampaniyalari faoliyati asosan iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, qonun ustuvorligi va qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, suv resurslarini boshqarish va atrof-muhitga oid masalalarga qaratilgan. Saylovoldi tadbirlar davomida amaldagi prezident turli chora-tadbirlarni joriy etish niyatida ekanligini e‘tirof etdi, ular tez orada amalga oshirilishi uchun Prezident farmonlari bilan mustahkamlab qo‘yildi³⁷. Barcha nomzodlar saylovoldi kampaniyasi uchun *Telegram* tarmog‘idan foydalanadilar, shuningdek, *Facebook*, *YouTube*, *Twitter* va *Instagram* ham aksariyat nomzodlar o‘zlarining saylovoldi tashviqot-targ‘ibot ishlari uchun qo‘llayotgan ijtimoiy media platformalardan hisoblanadi.

IX. SAYLOV KAMPANIYALARINI MOLIYALASHTIRISH

Saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirish Saylov kodeksi va 2004-yildagi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun (SPMQ), shuningdek, ajratiladigan mablag‘larning umumiy miqdori, muddatlari va hisobot shakllarini belgilovchi MSK tartib-qoidalari bilan tartibga solinadi. Qonunda siyosiy partiyalarning ustav faoliyatini muqobil manbalar hisobidan moliyalashtirishga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, bu manbalardan saylovoldi kampaniyasi uchun foydalanish taqiqlanadi³⁸. Saylovoldi

³⁴ Prezidentlikka ko‘rsatilgan to‘rt nafar nomzod: O‘zbekiston Ekologik partiyasidan (EP) – Abdushukur Xamzaev, O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasidan (O‘zLiDeP) – Shavkat Mirziyoev, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan (O‘zXDP) – Ulug‘bek Inoyatov va O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan (ASDP) – Robaxon Maxmudova

³⁵ Ro‘yxatga olingan nomzodlar saylovchilar bilan uchrashish uchun davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalaridan bepul binolar, shu jumladan jihozlangan binolar olish huquqiga ega.

³⁶ DIIHB SKM tomonidan kuzatilgan 11 ta saylovoldi kampaniyasi tadbirlarining barchasi o‘zbek tilida o‘tkazilgan va 11 ta asosiy ma‘ruzachilardan faqat bittasi ayol kishi bo‘lgan. DIIHB SKM kuzatuvchilari ishtirok etgan tadbirlarda nogironlar uchun sharoit yaratilgan bo‘lsa-da, birorta ham nogiron shaxs ishtirok etmagan.

³⁷ Prezident tomonidan 1-iyunda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi; Prezident 12-iyun kuni Qoraqalpog‘istonda soliq imtiyozlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartishlarni tasdiqladi; 14-iyunda esa Prezident qarori bilan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha qarzdorlik undirilib, soliq qarzi, penya va jarimalarni undirish bo‘yicha sud jarayonlari tugatildi.

³⁸ Prezident saylovi kampaniyasini o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

kampaniyasini moliyalashtirish qo‘shimcha va faqat nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalarga ajratiladi³⁹. Mazkur saylovlarni o‘tkazish uchun MSK saylov maqsadlarida jami 19,655 milliard so‘m ajratdi⁴⁰.

2021-yildan boshlab qonunchilik MSKga o‘z nomzodini ko‘rsatgan siyosiy partiyalar MSK tomonidan tasdiqlangan shablon asosida oraliq va yakuniy hisobotlarni taqdim etishlari shart⁴¹. Bu davlat mablag‘laridan alohida tarzda xabar qilinishi zarur⁴². Oraliq hisobotga Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi kampaniya xarajatlari ham kiritilishi kerak. Hisob palatasi bu hujjatlar bo‘yicha moliyaviy auditni keyingi kalendar yili boshida o‘tkazadi. DIIHBning avvalgi tavsiyasiga muvofiq, 2021-yildan boshlab bunday audit natijalari e‘lon qilinishi zarur. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish tartibiga rioya qilmaganlik uchun faqat umumiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, bunday qoidabuzarlik faqat jarima bilan jazolanadi, lekin ushbu ma‘muriy huquqbuzarlik doirasiga kiruvchi huquqbuzarliklarning alohida turlari sanab o‘tilmagan⁴³.

X. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Konstitutsiya so‘z erkinligi va axborot olishning asosiy kafolatlarini belgilaydi. Tuhmat, haqorat va yolg‘on ma‘lumotlarni tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan⁴⁴. Bundan tashqari, 2021-yilda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan o‘zgartishlarda blogerlar va veb-saytlar va lahzali xabar almashish tizimlari egalarining uchinchi shaxslar kontenti hamda ularning platformalarida joylashtirilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarligi kengaytirgan holda belgilab berilgan. DIIHB SKMning ba‘zi suhbatdoshlari fikricha, o‘zini-o‘zi senzura qilish hamon keng tarqalgan amaliyot bo‘lib qolmoqda. Ba‘zi jurnalistlar va blogerlar tahririyat mustaqilligiga aralashish, tahdidlar va hibsga olishlarga duch kelganliklarini ma‘lum qilishdi.

Ko‘plab davlat ommaviy axborot vositalari cheklangan reklama bozorida tijorat OAVlari bilan raqobatlashadi. Milliy teleradiokompaniya (MTRK) tarkibiga kiruvchi 12 ta milliy, shuningdek, 14 ta hududiy teleradiokompaniya va 4 ta radiostansiya hali mustaqil OAV sifatida faoliyat ko‘rsatmaydi⁴⁵. Tijorat ommaviy axborot vositalarining egalik huquqi bo‘yicha ma‘lumotlar hamma uchun ochiq emas. Televideniye ko‘ngilochar tadbirlarga, ijtimoiy va biznes rivojlanishini rag‘batlantirishga e‘tibor qaratsada, so‘nggi yillarda onlayn makonning biroz ochilishi mahalliy hokimiyatni tanqid qilish va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish uchun zamin yaratdi. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra OAV ta‘sis fondining 30 foizdan ortig‘i xorijlik ta‘sischi bo‘lishi taqiqlanadi, mahalliy ommaviy axborot vositalariga esa chet eldan mablag‘ olish taqiqlanadi. “Ozod Yevropa” radiosining o‘zbek tilidagi xizmati (“Ozodlik” radiosi) sayti va boshqa bir qator saytlar hamon bloklangan⁴⁶.

³⁹ Siyosiy partiyalarga saylovoldi kampaniyasi oldidan targ‘ibot-tashviqot materiallarini tayyorlash uchun o‘z mablag‘laridan foydalanishga ruxsat etiladi, bu esa keyinchalik davlat tomonidan saylovoldi kampaniyasini o‘tkazish uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan qoplab beriladi.

⁴⁰ 1 yevro – 12 383,7 so‘mga teng. Saylovoldi kampaniyasining foydalanilmagan mablag‘lari saylov komissiyalari tomonidan natijalar e‘lon qilinganidan keyin besh kun ichida davlat byudjetiga qaytarilishi shart.

⁴¹ Oraliq hisobot saylov kuniga besh kun qolganda, yakuniy hisobot esa saylov natijalari e‘lon qilingan kundan boshlab 20 kun ichida taqdim etilishi zarur.

⁴² Hisobotlar siyosiy partiyalarning veb-saytlarida, bosma nashrlarda e‘lon qilinadi.

⁴³ Fuqarolar uchun jarimalar – bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha, mansabdor shaxslar uchun esa 20 baravarigacha. 2023-yil uchun bazaviy hisoblash miqdori 330 000 so‘m etib belgilangan.

⁴⁴ 2020-yilda Jinoyat kodeksidan tuhmat uchun qamoq jazosi olib tashlangan bo‘lsa-da, prezidentga tuhmat qilish va uni omma oldida haqoratlash besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi, 2021-yilda qonunchilikka kiritilgan o‘zgarishlarga ko‘ra esa, prezidentga tuhmat qilish va uni haqoratlash internet OAV va ijtimoiy tarmoqlar uchun ham amal qiladigan bo‘ldi.

⁴⁵ MTRK Bosh direktori prezident bilan kelishilgan holda hukumat tomonidan tayinlanadi.

⁴⁶ Bloklangan saytlarning bloklash zarurati va sabablari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan ro‘yxati hamma uchun ochiq emas.

Saylov kodeksi va MSK qarori nomzodlarga davlatga tegishli milliy va mintaqaviy teleradiokompaniyalar hamda gazetalarda bepul efir vaqti va nashr uchun sahifa olish huquqini beradi⁴⁷. Bundan tashqari, nomzodlar reklama vaqti va maydonini teng shartlarda sotib olishlari mumkin. OAV yangiliklarni teng yoritishi shart. MSK qaroriga ko‘ra, belgilangan me‘yorlarga rioya etilishi ustidan nazoratni OAV faoliyatini tartibga soluvchi organ – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) MSK matbuot xizmati bilan hamkorlikda amalga oshiradi. 12-iyun kuni DIIHB SKM beshta telekanal va beshta onlayn ommaviy axborot vositalari bo‘yicha miqdor va sifat bo‘yicha o‘z monitoringini boshladi⁴⁸.

XI. ETNIK OZCHILIK VAKILLARINING ISHTIROKI

Konstitutsiyada O‘zbekiston ko‘pmillatli davlat ekanligi, unda barcha fuqarolar millati, elati va tilidan qat’i nazar, teng huquqlarga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil qiladi, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, etnik ozchiliklar aholining 16,3 foizini tashkil qiladi. Boshqa muhim etnik guruhlar, jumladan, tojiklar, qozoqlar, ruslar, qoraqalpoqlar, tatarlar va turkmanlar kiradi⁴⁹. O‘zbek tili rasmiy davlat tili bo‘lib, qonunga ko‘ra davlat boshqa ozchilik tillarining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart. Saylov kodeksida saylov byulletenlari davlat tilida (lotin va Kirill alifbosida), shuningdek, okrug saylov komissiyasining qarori bilan tegishli hudud aholisining ko‘pchiligi so‘zlashadigan tillarda chop etilishi belgilab qo‘yilgan. Siyosiy partiyalar DIIHB SKMni etnik ozchiliklar tillarida ham saylovoldi kampaniyasi materiallarini chop etishlari va tarqatishlari haqida ma’lum qilishdi.

XII. SHIKOYATLAR VA MUROJAATLAR

Qonun barcha manfaatdor tomonlarga keng huquqiy maqom beradi⁵⁰. Saylov ma’muriyati saylov bilan bog‘liq har qanday shikoyatlar bo‘yicha vakolatiga ega, saylov komissiyalarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan faqat ma’muriy sudlarga berilishi kerak bo‘lgan shikoyatlar bundan mustasno⁵¹. Saylov kodeksida saylov komissiyasining harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyati aniq belgilanmagan bo‘lsa-da, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunda va MSK qarorida arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqishni noqonuniy rad etish ustidan shikoyat qilish mumkinligi belgilangan. MSK qarorlari, shu jumladan saylov natijalari yuzasidan chiqargan qarorlari ustidan Oliy sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Qonunda shikoyat berish muddati belgilanmagan bo‘lsa-da, saylov komissiyalari shikoyatlar berilgan kundan boshlab uch kun ichida qaror qabul qilishlari shart⁵². MSKning DIIHB SKMga xabar berishicha, ular ba’zi vaziyatlarda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan muddatlar va ularni cho‘zish tartibiga asoslanadilar. Saylov organining qarorlari ustidan ular qabul

⁴⁷ Saylovoldi kampaniyasining birinchi haftasida to‘rt nafar nomzodga 4 ta milliy davlat telekanalida mos ravishda 90 daqiqa, ikkinchi haftadan beshinchi haftagacha esa mos ravishda 30 daqiqa bepul efir vaqti beriladi. Oxirgi haftaga partiyalararo debatlar rejalashtirilgan. Hududdiy davlat telekanallaridagi bepul efir vaqtining umumiy miqdori har bir stansiya va nomzod uchun 100 daqiqani tashkil etadi.

⁴⁸ Kuzatilayotgan telekanallar: “O‘zbekiston” va “O‘zbekiston24” davlat telekanallari, shuningdek, “MY5”, “Sevimli” va “UzReport” tijorat telekanallari. Kuzatiladigan onlayn nashrlar: *Daryo.uz*, *Gazeta.uz*, *Kun.uz*, *Podrobno.uz* va *Qalampir.uz*.

⁴⁹ Oxirgi rasmiy aholini ro‘yxatga olish 1989-yilda o‘tkazilgan va etnik ozchilik vakillari haqidagi ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2017-yilda yangilangan. 2023-yilda aholini ro‘yxatga yangidan olish rejalashtirilgan.

⁵⁰ Saylov komissiyalariga har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs murojaat qilishi mumkin. Saylovchilar ro‘yxatidagi xato yoki noaniqliklarni har qanday fuqaro ko‘rsatishi mumkin. Saylov komissiyalarining qarorlari ustidan nomzodni ko‘rsatgan siyosiy partiyalar, nomzodlarning o‘zlari, nomzodning ishonchli vakillari, kuzatuvchilar va saylovchilar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

⁵¹ Saylovga oid sud qarorlari bitta sudya tomonidan tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqiladi va darhol ijro etilishi lozim. DIIHBning avvalgi tavsiyasiga muvofiq, 2021-yilgi tuzatishlar sudlarga va yuqori turuvchi saylov komissiyalariga parallel ravishda murojaat qilishning avvalgi takrorlanuvchi tizimiga barham berib, saylov bilan bog‘liq nizolarni hal qilishning parallel usullarini bekor qildi.

⁵² Saylov kuniga olti kun qolganda, shuningdek, saylov kunida berilgan barcha shikoyatlar bundan mustasno bo‘lib, ular yuzasidan darhol qaror qabul qilinishi zarur.

qilingandan keyin besh kun ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin va ular uch kun ichida ko‘rib chiqilishi zarur.

Qonunchilikka ko‘ra, saylov komissiyalari shikoyatlar jurnalini yuritishi va shikoyatchilarni qarorlar haqida xabardor qilishi shart. Shikoyatlar bo‘yicha individual qarorlarni e‘lon qilish qonunchilikka muvofiq talab qilinmaydi⁵³. 2023-yil iyun oyidan boshlab MSK kelib tushgan murojaatlar, ular bo‘yicha ko‘rilgan choralarni tasdiqlash to‘g‘risida qabul qilingan qarorlar bo‘yicha hisobot berishni boshladi⁵⁴. Biroq shikoyat va murojaatlarni ko‘rib chiqish, shikoyatchilarga javob berish jarayoni sud majlislaridan oldin amalga oshiriladi. Sudlarga berilgan shikoyatlar manfaatdor shaxslar ishtirokida ochiq ko‘rib chiqishni talab qilsa, manfaatdor shaxslar saylov komissiyalariga taklif qilinishi mumkin⁵⁵. 2023-yil 10-maydan beri MSKga fuqarolardan 102 ta murojaat kelib tushgan. Ulardan 22 tasi uchastka saylov komissiyalarini shakllantirish va uchastka saylov komissiyasiga a‘zolik masalalari bilan bog‘liq.

MSK tomonidan so‘rovlar, saylov bilan bog‘liq shikoyatlarga javob berish va onlayn rejimda huquqiy maslahatlar berish uchun bepul qo‘ng‘iroqlar markazi tashkil etildi. Unda xizmat ko‘rsatish uchun 10 nafar huquqshunos jalb qilingan bo‘lib, ular 10-iyundan boshlab to saylov natijalari rasman e‘lon qilinadigan kungacha fuqarolarga xizmat ko‘rsatad⁵⁶. MSKning yuridik bo‘limi uning faoliyatini nazorat va monitoring qiladi⁵⁷. 20-iyun holatiga ko‘ra ularga 72 ta qo‘ng‘iroq kelib tushgan.

XIII. FUQAROLAR VA XALQARO KUZATUVCHILAR

Xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, mahalla qo‘mitalari kuzatuvchilari, ommaviy axborot vositalari vakillari saylovlarni kuzatib borish huquqiga ega. DIIHBning oldingi tavsiyalariga qaramay, qonun hujjatlarida fuqaro sifatida kuzatuvchilik qilish bo‘yicha tartib-qoidalar mavjud emas. Xalqaro kuzatuvchilar MSK tomonidan, qolganlari esa OSK tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Bugungi kunga qadar MSK 308 nafar xalqaro kuzatuvchini ro‘yxatga oldi. DIIHB SKMning ba‘zi suhbatdoshlari fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazis tartib-qoidalari va chet eldan moliyalashtirishdagi cheklovlarni fuqarolik jamiyatining rivojlanishi hamda ularning saylov jarayonlarida to‘liq ishtirok etishi yo‘lidagi asosiy to‘siqlari sifatida e‘tirof etdilar.

XIV. ДИИХБ СКМ ФАОЛИЯТИ

DIIHB SKM 8-iyun kuni o‘z ishini boshladi. DIIHB missiyasi rahbari MSK Raisi, Tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari, Oliy sud, Bosh prokuror o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi (“O‘zkomnazorat”) vakillari, prezidentlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar rahbarlari va vakillari, ommaviy axborot vositalari hamda diplomatik va xalqaro hamjamiyat vakillari bilan uchrashdi. DIIHB SKM va YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori o‘z vakolatlariga muvofiq alohida tarzda faoliyat yuritadi.

***Ushbu hisobotning faqat ingliz tilidagi nusxasi rasmiy hujjat hisoblanadi.
Hujjatning norasmiy tarjimalari bilan o‘zbek va rus tillarida tanishish mumkin.***

⁵³ “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun faqat har chorakda kelib tushgan shikoyat va murojaatlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni e‘lon qilishni talab qiladi.

⁵⁴ DIIHB SKM Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2023-yil 19-maydan 13-iyungacha e‘lon qilingan 64 ta murojaatni ko‘rib chiqdi.

⁵⁵ Manfaatdor shaxslar taklif qilinishi mumkin.

⁵⁶ Ekspertlar Oliy sud, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va boshqa rasmiy davlat organlari va tashkilotlari vakillaridir.

⁵⁷ MSKning 1278-sonli qaroriga ko‘ra, operatorlar darhol hal etilgan murojaatlarni ro‘yxatga olishlari, ularga yozma yoki elektron shaklda javob berishlari shart emas. Murojaatlarni joyida hal qilishning iloji bo‘lmasa, ular kelib tushgan paytdan boshlab 10 daqiqa ichida ro‘yxatga olinishi kerak. Mas‘ul operator tezkor axborot berish markazi – “Call-center”ga kelib tushgan barcha murojaatlar bo‘yicha har kuni tahliliy va statistik ma‘lumotlarni tayyorlaydi va MSK Kotibiyatining huquqiy ta‘minlash bo‘limiga taqdim etadi.